



XALQ DEPUTATLARI NUROTA TUMAN KENGASHI

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-12-00

2023 - yil 24 - fevral

VII-47-24-5-74-K/23

Nurota tumani hokimligi

Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil boshida aniqlangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan mablag'lar ajratish to'g'risida

“Sudlar to'g'risida”gi O'zbekiston respublikasi Qonunining 10-moddasi, O'zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ning 27, 126-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar byudjetlarining, Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining qo'shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida”gi namunaviy Nizomga muvofiq, tuman moliya bo'limining 2023-yil 27-yanvardagi tuman mahalliy byudjetining 2023-yil boshida aniqlangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan mablag'lar ajratish to'g'risidagi №01-12-238/20-03-38/1-sonli xati, ushbu bo'yicha xulosasi, tuman Davlat soliq inspeksiyasining xulosasi hamda tuman byudjetining qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyaning xulosasini o'rganib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24,-moddalariga asosan, xalq deputatlari Nurota tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmoyishlarida, Hukumat qarorlari va bayonlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash hamda byudjet tashkilotlari va muassalari, byudjetdan mablag' oluvchilarning murojaatlarida ko'rsatib o'tilgan tadbirlarni mablag' bilan ta'minlash maqsadida tuman mahalliy byudjetining 2023-yil boshida aniqlangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan Nurota tuman hokimligiga-Navbahor tumanlararo iqtisodiy sudining 2022-yil 20-oktyabrdagi 4-2103-2201/1241-sonli, 2022-yil 20-oktyabrdagi 4-2103-2201/1240-sonli, 2022-yil 20-oktyabrdagi 4-2103-2201/1242-sonli, 2022-yil 22-dekabrda 4-2103-2201/1999-sonli, 2022-yil 20-dekabrda 4-2103-2201/1990-sonli, 2022-yil 22-dekabrda 4-2103-2201/2000-sonli hal qiluv qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida jami 358,9 million so'm, tuman hokimligining “E-qaror” tizimidan foydalanish xizmati xarajatlari uchun 16,0 million so'm, “IS-Doclow” elektron hujjat aylanishi, domen uchun xosting xizmatidan foydalanish xarajatlari uchun 18,0 million so'm, jami 392,9 million so'm mablag' ajratilsin.

2. Xalq deputatlari Nurota tuman Kengashi kotibiyati (O.Safarov) tuman mahalliy byudjetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' ajratilgan byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalari to'g'risidagi hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarida eshitib borilishini ta'minlasin.

3. Byudjet tashkilotlari va muassasalari hamda byudjetdan mablag' oluvchilar ajratilgan mablag'dan maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlasin.

4. Tuman Moliya bo'limi, tuman G'aznachilik bo'linmasi mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag'larni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Bo‘riyev) va xalq deputatlari Nurota tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha (F.Ermakov) doimiy komissiya zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



A.Fayziyev